

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY DRAMALARIDA IJTIMOIIY MUAMMOLARNING BADIY TALQINI

*Farg'ona davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi
Usmonbekova E'zoza*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziy dramalarida aks etgan ijtimoiy muammolar, ularning badiiy ifodasi va dramaturgning jamiyat taraqqiyotidagi o'рни tahlil qilinadi. Muallif asarlarida xalqning og'ir turmushi, jaholat, xotin-qizlar erksizligi kabi muammolarni yoritish orqali ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari suradi.

Kalit so'zlar:Hamza, dramaturgiya, ijtimoiy muammo, jadidchilik, ma'rifat, ayollar erkinligi, jamiyat, badiiy talqin

O'zbek adabiyotida dramaturgiya janrining shakllanishi va rivojlanishida Hamza Hakimzoda Niyoziy alohida o'rin tutadi. U nafaqat shoir va yozuvchi, balki jamiyatdagi muammolarni sahna orqali xalq ongiga yetuk dramaturgdir. Hamza dramalarida davrning eng dolzarb ijtimoiy masalalari o'zining badiiy ifodasini topgan. Hamza sovet davrida "Kim to'g'ri", "Tuhmatchilar jazosi", "Boy ila hizmatchi", "Ishchilar hayotidan" (1918), "Loshmon fojeasi" (1916-1918), "Farg'ona fojeasi" (1918-1920), "Qizil qon ichida yosh go'daklar", "Mahbus to'raning holi" (1919) singari pyesalarini yozgan. Ammo bu asarlarning aksariyati bizgacha etib kelmagan. H.H.Niyoziy keyinchalik targ'ibot va tashviqot yo'nalishida "Pastki SHo'rolar saylovi munosabati ila yozilgan cho'pchaklar", "Burung'i saylovlar" (1926), "Jahon solnomasining eng oxirgi kunlari" (1927), kabi pyesalarini ham yaratdi. Ayni shu davrda H.H.Niyoziy o'zbek dramaturgiyasining mumtoz namunalaridan bo'lgan "Maysaraning ishi" komediyasi hamda "Paranji sirdaridan bir lavha yoki yallachilar ishi" dramasini ham yozgan. Agar adibning ilk dramalari bo'lgan "Zaharli hayot" da melodrama va sentimentalizm unsurlari mavjud bo'lsa, keyinroq yozilgan "Tuhmatchilar jazosi", "Boy ila hizmatchi", "Paranji sirlaridan bir lavha" pyesalarida realizm kuchli ekanligini ko'rish mumkin.

Hamza dramalarida jamiyatdagi tengsizlik, jaholat va eski urf-odatlarining salbiy ta'siri keng yoritiladi. Xususan, uning "Zaharli hayot yoki ishq qurbonlari" asarida sevgi va majburiy nikoh o'rtasidagi ziddiyat orqali inson huquqlari muammosi ko'tariladi. Bu asarda yoshlarning taqdiriga befarq qaraydigan jamiyat tanqid qilinadi. Jumladan, "Paranji sirlaridan bir lavha" dramasida To'laxon obrazi orqali

ayollarning zaharli hayoti ochib berilgan.¹Bu drama xotin-qizlar hayotidagi erksizlik, paranji ortidagi fojeali taqdirni ochib berishga qaratilgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy ayollarning jamiyatdan ajratilgan holatini keskin tanqid qiladi.

Asarda paranji ramziy ma'noda jaholat va qaramlik belgisi sifatida talqin etiladi. Dramaturg ayollarning erkinlikka intilishi va insoniy huquqlarini himoya qilish g'oyasini ilgari suradi. Ushbu asar orqali muallif jamiyatni yangilanishga chorlaydi.

“Maysaraning ishi” dramasi ham milliy uyg'onishga turtki bo'ladi. Mazkur asarda ayollar erkinligi va ularning jamiyatdagi o'rni masalasi markazga qo'yiladi. Maysara obrazi orqali dramaturg aqlli, tadbirkor va mustaqil ayol timsolini yaratadi.

Asarda kulgili vaziyatlar orqali jiddiy ijtimoiy muammolar yoritiladi. Erkaklar ustunligi hukmron bo'lgan jamiyatda ayolning o'z haqqini himoya qilishi va muammolardan aql bilan chiqib ketishi ko'rsatiladi. Bu drama Hamzaning ayollar masalasiga ilg'or qarashlarini ifodalaydi va ma'rifatparvarlik ruhini kuchaytiradi.

“Zaharli hayot yoki ishq qurbonlari” dramasi jamiyatdagi majburiy nikoh, ota-onaning zo'ravon qarorlari va yoshlar taqdiriga befarqlik muammosini ochib beradi. Bu asar haqida o'zbek teatr tarixchisi Miyon Buzruk Solihov shunday deb yozgan: "Bu pyesa Hakimzodaning pyesa janri ustida bergan eng oldingi asaridir: uning soddaligi va, yuzakiroq chiqqan shu boshlang'ich asar bo'lishidan ilgari kelgan holdir; chunki, Hakimzodaning so'nggi asarlari bu pyesaga qaraganda san'at jihatidan ustun turadurlar"²Asarda sevgi erkinligi bilan eski urf-odatlar o'rtasidagi keskin ziddiyat asosiy konfliktni tashkil etadi.

"Zaharli hayot"ning bosh qahramonlari Mahmudxon ismli yosh yigit va uning sevgilisi Maryamxonidir. Mahmudxon yangi usul maktablarida tahsil olgan zamonaviy kiyinadigan, jadidchilik harakatiga hayrihoh yigit: uning sevgilisi Maryamxon garchi eski maktablarda o'qigan bo'lsada Mahmudxon ta'sirida u ham yangicha fikrlashga intiladi. Dramada jaholat, qoloqlik, mutaassiblik ilm-ma'rifat, taraqqiyot fidoiylari Mahmudxon va Maryamxonni fojeaga olib keladi. Asarning ikki qahramoni Maryam va Mahmud zamonasining hal qiluvchi kuchlari mutaassib kuchlarga qarshi kurashadilar. Tomonlar o'rtasidagi kurash eng yuqori nuqtaga ko'tariladi: ularning istiqbol haqidagi yuksak orzulari chilparchin bo'ladi. Natijada ilojsiz qolgan yoshlar mavjud tuzumga, feodal tartiblarga, jaholatga, mutaassablarga qarshi isyon tariqasida o'z jonlariga qasd qiladilar. Asardagi Mahmudxon manologlarida senlamentsollik shu darajada kuchliki, tinglovchining qalban larzaga soladi. Mahmudxonning o'limi oldidagi monologi fojeaning asl mohiyatini yanada to'laroq ochishga xizmat qiladi.

¹ Qo'shjonov M. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. – Toshkent: Fan, 1978.

² Rizaev O. XXI asr o'zbek teatri: muammolar va rejalar. "Teatr", 2002 yil, 6-

Qahramonlar orqali dramaturg shuni ko'rsatadiki, inson baxti jamiyat tomonidan emas, balki shaxsning erkin tanlovi orqali belgilanishi kerak. Asarning fojiviy yakuni esa ijtimoiy muammolarning naqadar og'ir oqibatlariga olib kelishini yaqqol ifodalaydi. Bu drama orqali Hamza jamiyatni o'zgartirish zarurligini ta'kidlaydi.

Hamza dramalarida eski va yangi dunyoqarash o'rtasidagi kurash yorqin tasvirlanadi. Jaholat tarafdorlari bilan ma'rifatparvarlar o'rtasidagi ziddiyat dramaturgik konfliktni yuzaga keltiradi. Muallif ma'rifatni jamiyatni taraqqiyotga olib boruvchi asosiy kuch sifatida talqin qiladi.

Hamza ijtimoiy muammolarni yoritishda dialog, konflikt va obrazlar tizimidan mahorat bilan foydalanadi. Uning qahramonlari oddiy xalq vakillari bo'lib, ular orqali real hayot manzaralari aks ettiriladi. Bu esa asarlarning hayotiylikini oshiradi.

Hamza dramaturgiyasida konflikt faqat shaxslar o'rtasidagi ziddiyat emas, balki g'oyalar to'qnashuvi sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni: eskilik va yangilik tarafdorlari, jaholat va ma'rifat, qaramlik va erkinlik qarama qarshi qo'yiladi. Konfliktlarning keskinligi esa asarlarning ta'sir kuchini oshiradi.

Hamza ko'targan muammolar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan:

- ayollar huquqlari,
- ta'lim va ma'rifat masalasi,
- erkin fikrlash muammosi.

Shu sababli uning dramalari hozirgi davr uchun ham tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Ular yoshlarni ongli, erkin fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Hamza Hakimzoda Niyoziyning dramatik asarlari bu janrning taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatadi va rang-barang obrazlar, bilan uni boyitdi. Ularning ayrimlarini bugungi kunda ham sahnalashtirish o'zbek tomoshabinlari uchun haqiqiy san'at namunasi qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rizaev O. XXI asr o'zbek teatri: muammolar va rejalar. "Teatr", 2002 yil, 6-son.
2. K.S. Stanislavskiy "Aktyorning o'z ustida ishlashi" - T., Yangi asr avlodi., 2010.
3. Jumanov I. Sahna nutqi - T., "Abu matbuot-konsalt" MCHJ nashriyoti - 2015.
4. Boltaboeva U. M. Sahna nutqi - o'quv qo'llanma Toshkent, "Innovasion ziyo"-2021.
5. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1989.
6. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2006.
7. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
8. Qo'shjonov M. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. – Toshkent: Fan, 1978.